

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198



UO'K: 347.12(575)

BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISH DAVRIDA DAVLATNING FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA ISHTIROK ETISHI**УЧАСТИЕ ГОСУДАРСТВА В ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ В ПЕРИОД ПЕРЕХОДА К РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ****THE PARTICIPATION OF THE STATE IN CIVIL-LEGAL RELATIONS DURING THE TRANSITION TO A MARKET ECONOMY****Ovulov Po'latjon Ilhom o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Davlat va huquq instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bozor munosabatlarga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi yoritilgan. Darhaqiqat, har bir davlat boshqa bir davlat yurisdiksiyasidan immunitet huquqiga egadir. Fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi davlat immuniteti bu davlatning o'z vakolatlarini o'zi qabul qilgan qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirishi, bunda fuqarolik-huquqiy munosabatdagi davlatning huquq va majburiyatlari faqatgina shu davlatning qonunchiligiga muvofiq belgilanishidir. Maqolada davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning subyekti sifatida ayni davlat immuniteti masalalari, shu jumladan BMTning "Davlatlarning yurisdiksiyaviy immunitetlari va ularning mulki to'g'risida"gi konvensiyasi (UNCSI) tahlil qilingan. Yakunda muayyan xulosalarga kelingan.

Annotatsiya

Действительно, каждое государство имеет право на иммунитет от юрисдикции другого государства. Государственный иммунитет в гражданско-правовых отношениях означает, что государство осуществляет свои полномочия на основе принятого им законодательства, а права и обязанности государства в гражданско-правовых отношениях определяются только в соответствии с законодательством этого государства. В статье анализируются вопросы государственного иммунитета как субъекта гражданско-правовой ответственности, в том числе Конвенции ООН «О юрисдикционных иммунитетах государств и их собственности». В итоге были сделаны определенные выводы.

Abstract

Indeed, every state has the right to immunity from the jurisdiction of another state. State immunity in civil law relations means that the state exercises its powers on the basis of legislation adopted by it, and the rights and obligations of the state in civil law relations are determined only in accordance with the legislation of this state. The article analyzes issues of state immunity as a subject of civil liability, including the UN Convention "On Jurisdictional Immunities of States and Their Property" As a result, certain conclusions were drawn.

Kalit so'zlar: davlat, BMTning "Davlatlarning yurisdiksiyaviy immunitetlari va ularning mulki to'g'risida"gi konvensiyasi, immunitet, hokimiyat vakolatlari, suverenitet, da'voni oldindan ta'minlanganligidan himoyalanih immuniteti, sud immuniteti, sud qarorlarini ijro qilishdan himoyalanih immuniteti, davlat mulki immuniteti, yurisdiksiya.

Ключевые слова: государство, Конвенция ООН о юрисдикционных иммунитетах государств и их собственности, иммунитет, полномочия власти, суверенитет, иммунитет от преимущественного права, судебный иммунитет, иммунитет от исполнения судебных решений, иммунитет государственного имущества, юрисдикция.

Key words: state, United Nations Convention on Jurisdictional Immunities of States and Their Property (UNCSI), immunity, powers of government, sovereignty, immunity from preemptive rights, judicial immunity, immunity from execution of court decisions, immunity of state property, jurisdiction.

KIRISH

Davlat ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar kabi muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Chunki huquqiy munosabatning mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Zero, fuqarolik-huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslar fuqarolik huquq layoqatiga, ya'ni fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo'lish layoqatiga molik bo'lishlari lozim. Fuqarolik huquqlari va burchlarga ega bo'lmagan shaxslar huquqiy munosabatda mustaqil subyekt sifatida qatnasha olmaydilar. Huquq va burchlarga ega bo'lish holati esa, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchisining fuqarolik huquq layoqatiga ega

SIYOSAT

bo'lishini ifodalaydi. O'z navbatida davlat ham fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Davlat ham fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi mulkdor bo'lish, o'z organlari va yuridik shaxslari orqali tadbirkorlik bilan shug'ullanish, turli bitimlar tuzish va majburiyatlarda ishtirok etish hamda boshqa huquqlar egasi bo'lishi mumkin. Lekin tom ma'noda davlatning huquq layoqati turli xildagi yuridik shaxslar va fuqarolarning huquq layoqati bilan bir xil bo'lishi mumkin emas. Ba'zi hollarda davlatning huquq layoqati fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq layoqatidan kengroq bo'lsa, ba'zan davlatning huquq va burchlari cheklanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy, mantiqiy usullar, rasmiy huquq usulidan foydalanildi. Tarixiy-dinamik usulda davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi masalalari tahlilga tortiladi. Davlat subyektiligining o'ziga xos jihatlari asoslantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ayni paytda davlatning fuqarolik-huquqiy layoqati fuqarolar va yuridik shaxslar huquq layoqatidan farq qilib, faqatgina davlatga tegishli bo'lgan mol-mulklar ro'yxati alohida qonunchilik hujjatlarida qayd etilishi ham mumkin. Masalan, mustaqilligimizning dastlabki yillaridan – 2024-йил 16-mayga qadar (ya'ni, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni amalga kiritilguniga qadar) davlatga mutlaq mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonunining 4, 5-moddalarida mustahkamlangan edi [1]. Fuqarolar va yuridik shaxslarga mutlaq huquq asosida tegishli bo'lgan mol-mulklar ro'yxati esa, mavjud emas. Xususiylashtirish borasida ushbu qonun o'rnini to'ldirgan – O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida" 14.02.2024-yildagi O'RQ–907-son Qonunning 10-moddasida xususiylashtiriladigan davlat mulki ob'ektlari mustahkamlandi. Unga ko'ra, davlat mulki, bundan davlat mulkini boshqarish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan xususiylashtirilmaydigan davlat mulki mustasno, to'liq yoki qisman xususiylashtirilishi mumkinligi nazarda tutildi [2].

Davlat fuqarolik muomalasida o'z manfaatlari uchun emas, ommaviy hokimiyatni samarali tatbiq etish uchun qatnashadi. Bunday maqsadlar davlat huquq layoqatining mohiyatini yanada to'ldiradi.

Fikrimizcha, davlatning fuqarolik-huquqiy layoqati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, murakkab tuzilma hisoblangan davlatning fuqarolik huquqi subyekti sifatidagi barcha jihatlarini qamrab oladigan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan va shu maqsaddan kelib chiqib amalga oshiriladigan, lekin ba'zi belgilari bilan maqsadlilikdan ajralib turadigan alohida huquq layoqatidir.

Ta'kidlash lozimki, o'tish davrida ayniqsa ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tishda davlatning boshqaruv sohasidagi vakolatlarini qat'iy ravishda cheklash, iqtisodiy munosabatlarga davlat ta'sirini keskin kamaytirib yuborish kutilgan natijalarni bermaydi [3]. Bunda mamlakatda turli iqtisodiy inqirozlar yoki muayyan ijtimoiy munosabatlarda o'ziga xos iqtisodiy-siyosiy tanglik vujudga kelishi kabi salbiy holatlar yuz berishi mumkin. Shu munosabat bilan bozor munosabatlariga o'tishda davlatning iqtisodiy munosabatlarga aralashuvini sekin-astalik bilan kamaytirib borish, ma'muriy uslublar o'rnini fuqarolik-huquqiy vositalarga bo'shatib berish o'tish jarayonida muayyan davrlar va bosqichlar orqali amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda immunitet davlatga nisbatan shunday holatni yuzaga keltiradiki, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etib, o'z majburiyatlarini bajarmagan davlat faqat o'z milliy qonunchiligi asosida javobgarlikka tortiladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatga nisbatan vakolatlarni amalga oshirmaslik va hokimiyat vakolatlaridan foydalanmaslik talabi belgilangan bo'lsa-da, davlatning bu belgilari u bilan chambarchas bog'liqligi sababli fuqarolik huquqiy munosabatlarga ham ta'sir etadi. Aynan shu holatlar "immunitet" atamasining mohiyatini tashkil etadi.

Davlat immuniteti va uning amaliy ahamiyati bilan bog'liq masalalar tahlil qilinib, bu boradagi huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalarini hisobga olib (B.B.Samarxo'jaev, K.Q.Rashidov, M.Boguslavskiy, I.A.Demidov, A.A.Ivanov) [4], bir qator mualliflarning O'zbekiston Respublikasining "Davlat immuniteti to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish to'g'risidagi fikrlariga qo'shilib, ushbu qonunni qabul qilish zaruriyatiga biza ham to'la qo'shilamiz.

Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida boshqa subyektlar bilan o'zaro huquqiy aloqalarga kirishar ekan, bunda u o'ziga tegishli bo'lgan imtiyozlar: hokimiyat vakolati,

hukmronlik va boshqarish faoliyati, ustunlik maqomidan voz kechishiga to'g'ri keladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda davlat suverenitet sohibi sifatida yagona va bo'linmas subyekt hisoblanadi. Zero, bitta alohida olingan hududda ikkita suverenitet sohibi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi [5].

Ma'lumki, davlatning fuqarolik huquqining boshqa subyektlari hisoblanmish fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan har doim "tartibga soluvchilik", "tenglikni ta'minlash", "o'zaro nizolarni hal qilish" xususiyatlariga egaligi bilan birga, davlat fuqarolik huquqi subyektlari tizimida alohida subyekt, uning alohidaligi, avvalo davlatning hokimiyat vakolatlari sohibligidan kelib chiqadi. Qonun hujjatlarida belgilagan kafolatlargina davlat fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari tengligini buzmasligini ta'minlaydi. Mulkiy majburiyat va ularni bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik boshqa subyektlarga tatbiq etilganidek, davlatga ham bir xilda qo'llaniladi, davlat o'z organlari va mansabdor shaxslari xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, boshqa subyektlarda mavjud bo'lmagan mulkiy imkoniyatlar (moddiy ne'matlarning katta zahirasi davlatning qo'lida to'planganligi, davlat tabiiy boyliklar, yer, suvning mutlaq sohibi ekanligi) ga davlat ega bo'ladi, – degan xulosaga kelish mumkin.

Ma'lumki, hozirgi kunda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtiroki monistik (davlat nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda faqat bitta organ ishtirok etishi) va plyuralistik (davlat nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bir nechta organning qatnashishi) nuqtai-nazardan tahlil qilinadi. Darhaqiqat, davlat ishtirokini tahlil etishda ana shu ikki yo'nalishdan birini tanlash va shu asosda davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokini o'rganish bugungi sivilistika fani oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Dissertatsiya ishida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtiroki monistik yo'nalishda ochib beriladi va fuqarolik huquqining subyekti hisoblanadigan davlat "yagona" va "bo'linmas" shaxs sifatida huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi asoslanadi.

Davlatning fuqarolik muomalasida ishtirok etishi, bir qator o'ziga xos jihatlarga ega. Garchi davlat fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi fuqarolik muomalasida ishtirok etib, o'zining maqsad va vazifalarini amalga oshirsa-da (masalan, davlat fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan tovarlar yetkazib berish to'g'risidagi davlat kontraktini tuzishdan (fuqarolik muomalasiga kirishishdan) maqsadi o'zi (davlat) ning ehtiyojlarini qondirishdir), ayni paytda murakkab tuzilma ekanligi uchun ham davlatning fuqarolik muomalasidagi ishtiroki qonun hujjatlarida belgilangan vakolatga ega bo'lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, davlat fuqarolar va yuridik shaxslardan farq qilib, fuqarolik muomalasida bevosita va bilvosita ishtirok etadi.

Fuqarolik muomalasida davlatning bevosita ishtirok etishini ta'minlaydigan yuridik shaxslar jumlasiga tashkiliy-huquqiy shakli jihatidan davlatga tegishli bo'lgan (shu jumladan, davlat budjetiga tegishli) va munitsipal unitar korxonalar, shuningdek, davlatning o'zi tomonidan ta'minlanadigan muassasalar kiradi. Bunday yuridik shaxslarning mulkdori davlat hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, davlat muassasalari (organlari) ning huquqiy maqomi masalasi fuqarolik huquqining dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Yuridik adabiyotlarda davlat muassasalari fuqarolik huquqining subyekti sifatida o'ziga xosliklarga ega ekanligi, ular bir vaqtning o'zida ommaviy hokimiyat vakolatiga ega ekanligi bilan birga, yuridik shaxs hisoblanishi ta'kidlanadi [6].

Albatta, mazkur fikrlar davlat organlari bir vaqtning o'zida ham hokimiyat vakolatlarini amalga oshiruvchi, ham davlatning tovar-pul munosabatlardagi ishtirokini ta'minlovchi subyekt ekanligidan kelib chiqadi. Davlat organlarining fuqarolik-huquqiy maqomi yuridik shaxslarniki kabi ekanligi va uning ma'muriy huquq subyekti ekanligi xususidagi fikrlar isbot talab qilmaydigan qoida (aksioma) ekanligini ta'kidlagan holda, davlat organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan bevosita ishtirok etganlarida ushbu munosabatlarning boshqa ishtirokchilari bilan bab-baravar asoslarda qatnashishlarini aytib o'tish lozim.

Shu bilan birga, davlat organlari faqatgina tashkil topganidan so'nggina fuqarolik huquqining subyekti sifatida e'tirof etilishi mumkin. Zero, davlat organlarining tashkil topishi bilan bog'liq munosabatlar har doim ma'muriy-huquqiy tusga ega bo'lib (garchi davlat organlari yuridik shaxs ekanligi ularni tashkil etuvchi va faoliyatini belgilab beruvchi qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, vujudga kelish va bekor bo'lish tartibiga ko'ra, davlat organlari va yuridik shaxslar biri-biridan tubdan farq qilishini e'tirof etmoq lozim), ularga qonun hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs maqomining berilishi esa, fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi davlat organlarining subyekt sifatidagi huquqiy holatini belgilash bilan bog'liqdir.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtirokini ta'minlovchi organlarning ko'pligi, ularning har birida fuqarolik muomalasida davlat nomidan ishtirok etayotganda muayyan miqdordagi

SIYOSAT

davlat mol-mulki – xazinas (fisk) ning bir qismi bo'lishini talab etadi [7]. Shuning uchun ham davlat xazinasining fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari bilan tengligini ta'minlash zarur bo'ladi. Bu holat fuqarolik muomalasida davlat bilan bo'ladigan munosabatlarda fuqarolar va yuridik shaxslar huquqlarini himoya qiladi. Ya'ni fuqarolik muomalasida davlat nomidan ishtirok etuvchi organlarning soni ko'pchilikni tashkil etar ekan, ularning fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa subyektlari bilan majburiyatlari yuzasidan javobgarligini aniqlash ham qiyinlashadi. Davlat majburiyati (davlat organlarining fuqarolik muomalasidagi majburiyati) uchun har bir organning alohida-alohida javobgarligi masalasini yanada qiyinlashtiradi. O'zbekistonning o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'li, ayniqsa, so'nggi 8-9 yillik davr davlatning ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgartirdi. Chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Davlat endilikda iqtisodiy, xo'jalik aloqalariga ortiqcha aralashavermaydigan, eng muhim, strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalarda o'z so'zini aytadigan tuzilma bo'lib qoldi. Mazkur subyektning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi o'rni, ishtiroki, ushbu ishtirokning usul va vositalari, ularning samaradorligi xususidagi, bir so'z bilan aytganda, ushbu subyekt fuqarolik-huquqiy maqomining ilmiy doktrinasini yaratish, avval bildirilgan g'oyalarni takomillashtirish, to'ldirish barobarida ushbu tadqiqot yuzaga keldi. Bir so'z bilan aytganda, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida tashkil etish – pirovard maqsadga aylandi [8]. Eng muhimi, "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi" [9].

Nazariyotchi olimlar davlatning huquqiy munosabatlardagi ishtiroki, unda tutgan o'rni va roliga to'xtalsalar (Z.M.Islomov, S.S.Alekseev) [10], sivilistika fani sohasining vakillari davlatning fuqarolik-huquqiy layoqatliligi, uning "shaxs" sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari, davlatning mulkiy munosabatlarda ishtiroki masalalarini o'ziga xos tarzda tadqiq qiladilar (H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov) [11]. Biroq ko'rsatilgan ilmiy ishlarda, darsliklar va sharhlarda, maqolalar va risolalarda bu mavzu bir butun, yaxlit va tizimli tarzda yoritilmagan, masalaning ayrim qirralarigina tadqiq etilgan, xolos. Ayniqsa, bu dissertatsiya mavzusining yangiligi va hozirgi davr talablari taqozo etuvchi yangicha mazmuni bilan yanada e'tiborlidir. Davlatning yaqin o'tmishdagidek, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda monopol, hukmron mavqeiga barham berildi. Tan olish kerakki, o'tgan davr mobaynida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi subyektiligi maxsus belgilanmasa-da, biroq u bir qator tadqiqotlar, ishlanmalar uchun "o'ziga xos o'zlashtirilmagan" ob'ektga aylandi. Biroq ularning barchasi o'sha davr mafkurasi, iqtisodiy va siyosiy tartib-taomillari doirasida amalga oshirildi. Aynan shu davrlarda davlatning fuqarolik huquqi subyektiligi masalalari R.O.Xalfina, S.N.Bratus, M.I.Braginskiy, L.A.Luns lar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, davlatning mulk huquqi masalalari A.V.Venediktov, N.D.Yegorovlar tomonidan o'rganilgan [12].

XULOSA

Shuni aytish kerakki, mazkur tadqiqot predmeti bo'lgan davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi sifatidagi masala xususida muammolar va ularning yechimi yuzasidan mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev asarlarida ham konseptual g'oyalar, fikr-mulohazalar (xalqni rozi qilish, davlat mulkini xususiylashtirish va haqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirish, ixcham, professional hukumatni shakllantirish, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar jalb qilish kabilar) beriladi [13]. Bu g'oyalar va tadbirlarning dolzarbligi, mantig'i va samaradorligida – xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, ya'ni "Yangi O'zbekiston" degan bosh g'oya, ezgu niyat va pirovard maqsad yotadi.

ADABIYORLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 1-son, 43-modda. URL.: <https://lex.uz/docs/127010>. Mazkur qonun O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida" 2024-yil 14-fevraldagi O'RQ–907-son Qonuniga asosan 2024-yil 16-maydan o'z kuchini yo'qotdi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida" 2024-yil 14-fevraldagi O'RQ–907-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2024 y., 03/24/907/0127-son. URL.: <https://lex.uz/docs/6800515>.
3. Saidov A.X. Xalqaro huquq. – Toshkent: Adolat, 2001. 154-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 yil, 03/23/837/0241-son. URL.: <https://lex.uz/docs/6445145>.
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ–683-son Qonuni tahririda // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 yil, 03/21/683/0375-son. URL.: <https://lex.uz/docs/180552>.

6. Korostikova T., Sivkova V. Мы – Verxnyaya Volta, no nash bronepoezd... Chto teryaem мы? Chto teryayut oni? // Argumenty i fakty. – M., 1999. – №6. 6-s.
7. Borotov M.X. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida davlat ishtirokining nazariy va amaliy muammolari: yurid. fan. dokt. ... diss. – Toshkent: 2008. – B. 322.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" 11.09.2023-yildagi PF–158-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son. URL.: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. URL.: <https://lex.uz/ru/docs/-6445145>.
10. Davlat va huquq nazariyasi. Boboev H.B., Islomov Z.M. va boshq // Mas. muh. Boboev H.B., Odilqoriev H.T. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. 528-b.; Islomov Z.M. Davlat va huquq: umumnazariy masalalari (Davlat nazariyasi). – Toshkent: Adolat, 2000. -272 b.; Общество. Государство. Право. – Toshkent: Adolat, 2001. 695-s.; Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2007. 916-b.; Алексеев С.С. Общая теория права. – М., 2002. 159-c.
11. Rahmonqulov H.R. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997. 504-b.; Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – Toshkent: TDYul, 2006. 384-b.
12. Венедиктов А.В. Государственная социалистическая собственность. – М., Изд-во АН СССР, 1948. 840-с.; Егоров Н.Д. Гражданско-правовое регулирование экономических отношений. – Л., Изд-во ЛГУ, 1986. 214-с.
13. Sh.Mirziyoev. Xalqni rozi qilish – barcha rahbarlarning eng ustuvor vazifasi // <https://president.uz/uz/lists/view/5378>.